

e-avtomaktab.uz platformasidan foydalanish bo'yicha

OMMAVIY OFERTA

Versiya: v1.0

Kuchga kirish sanasi: 2026-yil 20-avgust

Asosiy tili: o'zbek tili, lotin yozuvi

Mazkur Ommaviy oferta O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq **“VATANPARVAR TASHKILOTI MARKAZIY KENGASHI TASARRUFIDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MARKAZI” unitar korxonasi** tomonidan e-avtomaktab.uz axborot tizimidan foydalanish yuzasidan jismoniy shaxslarga yo'llangan rasmiy taklif hisoblanadi.

Foydalanuvchi mazkur Oferta bilan to'liq tanishib, e-avtomaktab.uz platformasida **“Roziman”** tugmasini bosishi orqali uning shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qiladi.

Oferta aksept qilingan paytdan boshlab Operator va Foydalanuvchi o'rtasida mazkur Ofertada belgilangan shartlar asosida platformadan foydalanishga oid huquqiy munosabat vujudga keladi.

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Operator

“VATANPARVAR TASHKILOTI MARKAZIY KENGASHI TASARRUFIDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MARKAZI” unitar korxonasi, qisqa nomi — **“Vatanparvar”** axborot texnologiyalar markazi.

1.2. Platforma

Operator tomonidan boshqariladigan **e-avtomaktab.uz** axborot tizimi hamda undan foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lgan elektron xizmatlar, funksional modullar va axborot tizimlari.

1.3. Bog'liq tizimlar

Platformaning ayrim funksiyalarini amalga oshirishda foydalaniladigan, jumladan:

- e-test.uz;
- e-license.uz;
- Operatorning ichki statistik, monitoring va boshqaruv tizimlari;
- qonunchilik va tegishli integratsiyalar asosida bog'langan tashqi axborot tizimlari.

1.4. Foydalanuvchi

Tegishli avtomaktabda ta'lim olayotgan va Platformadan foydalanish huquqi berilgan jismoniy shaxs.

1.5. Avtomaktab

Foydalanuvchi bilan haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash yoki tegishli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan alohida shartnoma tuzgan va Operator bilan axborot-texnologik xizmatlar bo'yicha shartnomaviy munosabatga ega tashkilot.

1.6. Akkaunt

Foydalanuvchini identifikatsiya qilish va Platformaning shaxsiy funksiyalaridan foydalanish imkonini beruvchi elektron hisob yozuvi.

1.7. Aksept

Foydalanuvchining mazkur Oferta bilan tanishib, **“Roziman”** tugmasini bosishi orqali Oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilishi.

1.8. Ichki imtihon

Tegishli avtomaktab o'quv jarayoni doirasida o'tkaziladigan nazariy va/yoki amaliy ichki imtihon.

2. OFERTANING PREDMETI

2.1. Operator Foydalanuvchiga, u ta'lim olayotgan avtomaktab bilan mavjud munosabat doirasida, e-avtomaktab.uz va tegishli bog'liq tizimlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

2.2. Platforma orqali, jumladan:

- shaxsiy kabinetdan foydalanish;
- o'quv jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rish;
- dars jadvalini ko'rish;
- davomatni ko'rish;
- ta'lim guruhi va toifasiga oid ma'lumotlarni ko'rish;
- avtomaktabga amalga oshirilgan to'lovlarning summasi, sanasi va holatini ko'rish;
- ichki nazariy va amaliy imtihon natijalarini ko'rish;
- e-test.uz orqali ichki imtihonda ishtirok etish;
- e-license.uz orqali sertifikatni olish yoki uning haqiqiylikini tekshirish bilan bog'liq elektron imkoniyatlardan foydalanish;
- parolni olish, tiklash va o'zgartirish;
- Operator tomonidan taqdim etiladigan boshqa tegishli elektron funksiyalardan foydalanish

imkoniyati berilishi mumkin.

2.3. Operator Foydalanuvchiga haydovchilik bo'yicha ta'lim xizmatini bevosita ko'rsatuvchi tashkilot hisoblanmaydi.

2.4. Ta'lim xizmati bo'yicha shartnoma Foydalanuvchi va tegishli avtomaktab o'rtasida tuziladi.

2.5. Ta'lim uchun to'lov tegishli avtomaktabga amalga oshiriladi.

2.6. Operator avtomaktabning:

- ta'lim sifati;
- o'qituvchi yoki instruktor faoliyati;
- amaliy mashg'ulotlar;
- ta'lim narxi;
- ta'lim to'lovining undirilishi;
- avtomaktabning boshqa ichki faoliyati

bo'yicha bevosita xizmat ko'rsatuvchi tomon hisoblanmaydi.

3. PLATFORMADAN FOYDALANISH NARXI

3.1. Foydalanuvchi uchun e-avtomaktab.uz, e-test.uz va ular bilan bog'liq Platforma funksiyalaridan foydalanish uchun Operatorga alohida to'lov undirilmaydi.

3.2. Platformadan foydalanish imkoniyati Foydalanuvchining avtomaktab bilan tuzilgan ta'lim shartnomasi doirasida taqdim etiladi.

3.3. Foydalanuvchining avtomaktabga ta'lim uchun amalga oshiradigan to'lovlari Operatorga Platformadan foydalanish uchun to'lanadigan haq hisoblanmaydi.

4. RO'YXATGA OLIISH VA AKKAUNTNI FAOLLASHTIRISH

4.1. Foydalanuvchi haqidagi dastlabki ma'lumotlar:

- avtomaktabning vakolatli moderatori tomonidan;
- tegishli davlat yoki idoraviy axborot tizimlaridan qonuniy integratsiya orqali

Platformaga kiritilishi mumkin.

4.2. Foydalanuvchiga tegishli telefon raqami avtomaktabning vakolatli moderatori tomonidan uning hisob yozuviga biriktiriladi.

4.3. Foydalanuvchining tegishli ta'lim jarayoni boshlanganidan keyin u e-avtomaktab.uz saytining kirish qismiga telefon raqamini kiritadi.

4.4. Birinchi kirishda Foydalanuvchining telefon raqamiga SMS orqali Platformaga kirish uchun parol yuboriladi.

4.5. Birinchi kirish jarayonida Foydalanuvchiga:

- mazkur Oferta;
- amaldagi Maxfiylik siyosati

bilan tanishish va ularni alohida tasdiqlash imkoniyati beriladi.

4.6. Oferta va Maxfiylik siyosati tasdiqlanmasa, Platformaga kirishga ruxsat berilmaydi.

5. OFERTANI QABUL QILISH TARTIBI

5.1. Foydalanuvchining “**Roziman**” tugmasini bosishi mazkur Ofertaning aksepti hisoblanadi.

5.2. Aksept Foydalanuvchining Oferta shartlari bilan tanishganini va ularni qabul qilganini anglatadi.

5.3. Operator akseptni isbotlash maqsadida, jumladan:

- Foydalanuvchi identifikatori;
- Oferta versiyasi;
- Oferta tili;
- tasdiqlash sanasi va vaqti;
- mavjud texnik identifikatorlar;
- aksept holati

haqidagi ma'lumotlarni qayd etishi mumkin.

5.4. Foydalanuvchi Oferta matni bilan uni tasdiqlashdan oldin tanishishi hamda keyinchalik ham amaldagi matnni ko'rish mumkin.

5.5. Operator Ofertaning avvalgi versiyalarini ichki elektron arxivda PDF, HTML yoki boshqa o'zgarmas shaklda versiya raqami bilan saqlashi mumkin.

6. VOYAGA YETMAGAN FOYDALANUVCHILAR

6.1. Qonunchilikda ruxsat etilgan hollarda 18 yoshga to'lmagan Foydalanuvchilar ham Platformadan foydalanishi mumkin.

6.2. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan Foydalanuvchi qonunchilikda ota-ona, farzandlikka oluvchi, homiy yoki boshqa qonuniy vakil roziligi talab qilinadigan harakatlarni tegishli rozilik mavjud bo'lgan holda amalga oshirishi lozim.

6.3. Foydalanuvchining Platformadagi mustaqil aksepti uning qonunchilikda nazarda tutilgan qonuniy vakil roziligini olish majburiyatini bekor qilmaydi.

7. AKKAUNT VA AXBOROT XAVFSIZLIGI

7.1. Akkaunt faqat uning egasi bo'lgan Foydalanuvchining shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan.

7.2. Foydalanuvchiga:

- akkauntni boshqa shaxsga berish;
- akkauntni sotish;
- vaqtincha foydalanishga berish;
- login yoki parolni uchinchi shaxs bilan bo'lishish

taqiqlanadi.

7.3. Foydalanuvchi login va parolining maxfiyligini saqlashi shart.

7.4. Parollar Operator tizimlarida hash qilingan shaklda saqlanadi.

7.5. Platforma bilan ma'lumot almashinuvi HTTPS/TLS himoyalangan aloqa kanali orqali amalga oshiriladi.

7.6. Bir akkauntidan bir vaqtning o'zida faqat bitta qurilmada foydalanish mumkin.

7.7. Yangi qurilmadan muvaffaqiyatli kirilganda oldingi faol sessiya avtomatik tugatilishi mumkin.

7.8. Foydalanuvchining odatiy sessiyasi 2 soat davom etadi. Sessiya tugagach, Foydalanuvchi telefon raqami va paroli orqali qayta avtorizatsiyadan o'tadi.

7.9. Foydalanuvchi parolini istalgan vaqtda o'zgartirishi mumkin.

7.10. Parolni tiklashda eski parol bekor qilinadi va yangi parol shakllantiriladi.

7.11. Yangi parol SMS yoki Telegram bot orqali taqdim etilishi mumkin.

7.12. Telefon raqami o'zgartirilganda yangi telefon raqami SMS-kod orqali tasdiqlanadi.

8. TELEGRAM VA SMS XIZMATLARI

8.1. Operator Foydalanuvchiga:

- login/parol;
- parolni tiklash;
- qarzdorlik haqidagi xizmat xabarlar

kabi ma'lumotlarni SMS va/yoki Telegram orqali yuborishi mumkin.

8.2. Qarzdorlik xabarida, jumladan:

- qarzdorlik summasi;
- to'lov muddati;
- avtomaktab nomi

ko'rsatilishi mumkin.

8.3. Operator Foydalanuvchilarga reklama va marketing xabarlarini yubormaydi.

8.4. SMS yuborish uchun Eskiz.uz servisidan foydalanilishi mumkin.

8.5. Telegram bot Foydalanuvchiga parolini olish yoki o'zgartirish imkonini berishi mumkin.

9. FOYDALANUVCHINING HUQUQLARI

Foydalanuvchi:

- 9.1. Platformadan mazkur Oferta shartlariga muvofiq foydalanish;
 - 9.2. o'ziga tegishli Platformada ko'rsatiladigan ma'lumotlar bilan tanishish;
 - 9.3. o'z to'lovlar tarixini ko'rish;
 - 9.4. davomat tarixini va umumiy davomat foizini ko'rish;
 - 9.5. ichki nazariy va amaliy imtihon natijalarini ko'rish;
 - 9.6. o'ziga tegishli noto'g'ri ma'lumotlarni tuzatish yuzasidan murojaat qilish;
 - 9.7. akkaunt bloklangan hollarda tegishli avtomatlik moderatoriga murojaat qilish;
 - 9.8. qonunchilik va mazkur Oferta doirasida Operator harakatlari yuzasidan murojaat yoki shikoyat berish;
 - 9.9. shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilishi bo'yicha amaldagi Maxfiylik siyosatida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanish;
 - 9.10. Platforma orqali ichki imtihon natijasiga belgilangan tartibda e'tiroz bildirish huquqiga ega.
-

10. FOYDALANUVCHINING MAJBURIYATLARI

Foydalanuvchi:

- 10.1. Platformadan faqat qonuniy maqsadlarda foydalanishi;
- 10.2. o'z akkauntining xavfsizligini ta'minlashi;
- 10.3. akkauntini uchinchi shaxslarga bermasligi;
- 10.4. Platformada boshqa shaxs nomidan harakat qilmasligi;
- 10.5. boshqa o'quvchi nomidan test yoki ichki imtihon topshirmasligi;
- 10.6. Face ID yoki boshqa nazorat mexanizmlarini chetlab o'tishga urinmasligi;
- 10.7. Platforma, server, API yoki boshqa axborot resurslariga ruxsatsiz kirishga urinmasligi;
- 10.8. test savollari va o'quv materiallarini noqonuniy nusxalamasligi yoki tarqatmasligi;
- 10.9. ruxsatsiz botlar, scriptlar yoki avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanmasligi;

10.10. Platforma orqali ko'rsatiladigan ma'lumotlardan uchinchi shaxslarning huquqlarini buzish uchun foydalanmasligi;

10.11. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Oferta va Platformaning texnik qoidalariga rioya qilishi shart.

11. TAQIQLANGAN HARAKATLAR VA CHORALAR

11.1. Quyidagilar jiddiy qoidabuzarlik hisoblanishi mumkin:

- akkauntni boshqa shaxsga berish;
- boshqa shaxs nomidan ichki imtihon topshirish;
- Face ID yoki nazorat mexanizmlarini aldash;
- Platformaga ruxsatsiz kirish;
- test savollarini yoki o'quv materiallarini noqonuniy tarqatish;
- Platformaning normal ishlashiga xalaqit beruvchi bot, script yoki boshqa vositalardan foydalanish.

11.2. Qoidabuzarlik turi va og'irligiga qarab Operator:

- akkauntni to'liq bloklashi;
- ichki imtihon natijasini bekor qilishi;
- tegishli avtomaktabni xabardor qilishi;
- qonunda nazarda tutilgan hollarda vakolatli davlat organlariga murojaat qilishi

mumkin.

11.3. Agar Foydalanuvchining noqonuniy harakatlari Operatorga zarar yetkazsa, Operator O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq zararni undirish huquqini saqlab qoladi.

12. ICHKI IMTIHON VA e-test.uz

12.1. Foydalanuvchi ichki imtihonni e-test.uz orqali topshirishi mumkin.

12.2. Imtihonda Foydalanuvchining shaxsini aniqlash va imtihonni aynan shu shaxs bajarayotganini tekshirish uchun Face ID va yuzni aniqlash texnologiyalaridan foydalanilishi mumkin.

12.3. Foydalanuvchining Platformaga oldindan yuklangan profil rasmi kamera orqali olingan tasvir bilan solishtirilishi mumkin.

12.4. Dastlabki identifikatsiya uchun olingan kamera tasviri, alohida saqlash zarurati bo'lmasa, tekshiruv yakunlangach saqlanmaydi.

12.5. Ichki imtihon davomida imtihonni aynan Foydalanuvchi bajarayotganini tasdiqlash maqsadida tasodifiy vaqtlarda 1 tadan 5 tagacha nazorat fotosurati olinishi va belgilangan muddat davomida saqlanishi mumkin.

12.6. Biometrik ma'lumotlarga ishlov berishning batafsil tartibi Maxfiylik siyosatida belgilanadi.

12.7. Biometrik ishlov talab qilinadigan ichki imtihonda tegishli rozilik berilmasa, Foydalanuvchi ushbu elektron imtihonni topshira olmaydi.

12.8. Texnik nosozlik sabab imtihon yakunlanmasa, Foydalanuvchi avtomatlab moderatoriga murojaat qilib qayta topshirish imkoniyatidan foydalanishi mumkin.

12.9. Boshqa holatlardagi qayta topshirishlar soni va tartibi tegishli avtomatlabning ichki qoidalariga muvofiq belgilanadi.

13. ICHKI IMTIHON NATIJASIGA E'TIROZ

13.1. Foydalanuvchi ichki imtihon natijasi e'lon qilingan kundan boshlab **3 ish kuni ichida** avtomatlab moderatoriga e'tiroz bildirishi mumkin.

13.2. Moderator e'tirozni Operatorga yuboradi.

13.3. Operator murojaatni olganidan keyin uni imkon qadar **3 ish kuni ichida** ko'rib chiqadi.

13.4. Tekshiruvda, jumladan:

- Face ID natijalari;
- imtihondagi nazorat fotosuratlarini;
- login, IP va qurilma loglari;
- test boshlanish va tugash vaqti;
- avtomatlab moderatorining ma'lumotlari

hisobga olinishi mumkin.

13.5. E'tiroz asosli deb topilsa, holatga qarab:

- bekor qilingan natija tiklanishi;
- qayta imtihon topshirish imkoniyati berilishi;
- bloklangan akkaunt qayta ochilishi;
- bir nechta choralar birgalikda qo'llanishi

mumkin.

13.6. Ko'rib chiqish natijasi Foydalanuvchiga avtomatlab moderatorini orqali yetkaziladi.

14. TA'LIM MUDDATI VA PLATFORMAGA KIRISH

14.1. Foydalanuvchi guruhining ta'lim tugash sanasidan keyin **1 oy davomida** Platformaga kirish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

14.2. Ushbu muddat tugagach, Platformaga odatiy kirish avtomatik ravishda yopiladi.

14.3. Akkauntga kirishning yopilishi Foydalanuvchiga tegishli qonuniy ravishda saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning avtomatik ravishda yo'q qilinishini anglatmaydi.

15. AKKAUNTNI BLOKLASH

15.1. Foydalanuvchining akkaunti, jumladan, quyidagi hollarda cheklanishi yoki bloklanishi mumkin:

- ta'lim muddati tugaganda;
- Foydalanuvchi avtomaktabdan chetlatilganda;
- boshqa guruh yoki filialga ko'chirilganda;
- akkaunt dan noto'g'ri foydalanilganda;
- akkaunt boshqa shaxsga berilganda;
- xavfsizlik buzilishi aniqlanganda;
- Platforma xavfsizligiga tahdid mavjud bo'lganda;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

15.2. Xavfsizlik buzilishi yoki akkaunt dan begona shaxs foydalanayotgani aniqlansa, akkaunt oldindan ogohlantirmasdan darhol bloklanishi mumkin.

15.3. Ta'lim muddati tugaganda kirish avtomatik cheklanishi mumkin.

15.4. Bloklangan Foydalanuvchi akkaunt ni qayta tiklash masalasi bo'yicha o'z avtomaktabi moderatoriga murojaat qiladi.

16. BOSHQA AVTOMAKTAB YOKI FILIALGA KO'CHIRISH

16.1. Foydalanuvchini boshqa avtomaktab yoki filialga ko'chirish uning tegishli yozma arizasi asosida amalga oshiriladi.

16.2. Ko'chirish texnik jihatdan Operatorning vakolatli tizim administratori tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

16.3. Ko'chirishdan keyin avvalgi avtomaktabning Foydalanuvchi ma'lumotlariga kirish huquqi bekor qilinadi.

16.4. Yangi avtomaktab o'quv jarayonini davom ettirish uchun zarur bo'lgan oldingi:

- davomat;
- to'lovlar;
- ichki imtihon

tarixini ko'rishi mumkin.

16.5. Pasport va boshqa cheklangan identifikatsiya ma'lumotlari avtomaktab xodimlariga ularning vakolatidan tashqari to'liq ochilmaydi.

17. TO'LOV MA'LUMOTLARI VA TO'LOV TIZIMLARI

17.1. Platforma Foydalanuvchining avtomaktabga qilgan to'lovlariga oid:

- summa;
- sana;
- to'lov tizimi;
- tranzaksiya identifikatori;
- to'lov holati;
- izoh

kabi ma'lumotlarni qayd etishi mumkin.

17.2. Foydalanuvchining bank kartasi raqami, bank karta rekvizitlari yoki shaxsiy bank hisob ma'lumotlari Operator bazasida saqlanmaydi.

17.3. To'lovlarni amalga oshirishda, avtomaktabga qarab:

- Click;
- Payme;
- Paynet;
- GlobalPay;
- Uzum Bank

yoki boshqa qonuniy to'lov xizmatlari qo'llanilishi mumkin.

17.4. To'lov tizimlariga to'lovni identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan cheklangan ma'lumotlar uzatilishi mumkin.

17.5. Bank hisob raqami, MFO, STIR va boshqa tashkilot rekvizitlari tegishli avtomaktabga tegishli bo'lishi mumkin.

18. DAVOMAT VA TA'LIM MA'LUMOTLARI

18.1. Foydalanuvchi shaxsiy kabinetida:

- qaysi darsda qatnashgani yoki qatnashmagani;
- dars sanalari;
- umumiy davomat foizi

haqidagi ma'lumotlarni ko'rishi mumkin.

18.2. Davomat ma'lumotlari:

- o'quv jarayonini nazorat qilish;
- ichki imtihonga qo'yish shartlarini tekshirish;
- avtomaktab va tegishli vakolatli tashkilotlar hisobotlari;
- qonuniy integratsiyalar

uchun ishlatilishi mumkin.

19. DAVLAT VA TASHQI AXBOROT TIZIMLARI BILAN INTEGRATSIYA

19.1. Operator qonunchilik, tegishli shartnomalar va axborot almashinuvi asoslari mavjud bo'lgan hollarda Platformani tashqi axborot tizimlari bilan integratsiya qilishi mumkin.

19.2. Amaldagi integratsiyalar, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi — IHMA;
- YXHHga tegishli e-avtotalim axborot tizimi;
- to'lov tizimlari;
- SMS xizmatlari

bilan ishlashni o'z ichiga olishi mumkin.

19.3. e-avtomaktab ichki nazariy va amaliy imtihon natijalarini tegishli qonuniy asos mavjud bo'lganda e-avtotalim/YXHH tizimiga yuborishi mumkin.

19.4. IHMA tomonidan tegishli API so'rovi yuborilganda, qonuniy va texnik vakolat doirasida zarur ma'lumotlar taqdim etilishi mumkin.

19.5. Shaxsga doir ma'lumotlarning tashqi tashkilotlarga uzatilishining batafsil tartibi Maxfiylik siyosatida belgilanadi.

20. e-license.uz VA SERTIFIKATLAR

20.1. Foydalanuvchiga tegishli rasmiy sertifikatni olish yoki tekshirish e-license.uz orqali amalga oshirilishi mumkin.

20.2. Sertifikat Platformada doimiy PDF fayl sifatida saqlanmasdan, so'rov vaqtida dinamik tarzda generatsiya qilinishi mumkin.

20.3. Generatsiya qilingan vaqtinchalik fayl Foydalanuvchiga taqdim etilgandan keyin serverdan avtomatik ravishda o'chirilishi mumkin.

20.4. Sertifikatning haqiqiylikini QR kod yoki sertifikat raqami orqali ochiq tekshirish imkoniyati mavjud bo'lishi mumkin.

20.5. Ochiq tekshiruvda ayrim identifikatsiya ma'lumotlari maskalangan shaklda ko'rsatiladi.

20.6. Ochiq tekshiruvda Foydalanuvchining fotosurati ko'rsatilmaydi.

20.7. Sertifikat tekshiruvining suiiste'mol qilinishiga qarshi botlar va avtomatlashtirilgan ommaviy so'rovlarga texnik cheklovlar qo'llanilishi mumkin.

20.8. Sertifikatni shakllantirish va tasdiqlashda tegishli avtomaktab vakolatli xodimlari va Operator ishtirok etishi mumkin.

21. SHAXSIY MA'LUMOTLARNING MAXFIYLIK SIYOSATI

21.1. Operator Foydalanuvchiga oid shaxsga doir ma'lumotlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda amaldagi Maxfiylik siyosati asosida ishlov beradi.

21.2. Shaxsga doir ma'lumotlarning:

- turlari;
- yig'ilish maqsadlari;
- ishlov berish asoslari;
- uchinchi shaxslarga uzatilishi;
- biometrik ishlov;
- saqlash muddatlari;
- o'chirish tartibi;
- Foydalanuvchining huquqlari;
- xavfsizlik choralari

Maxfiylik siyosatida batafsil belgilanadi.

21.3. Foydalanuvchi Maxfiylik siyosatini alohida tasdiqlaydi.

21.4. Maxfiylik siyosati qabul qilinmasa, Platformadan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

21.5. Foydalanuvchi qonunchilikda belgilangan tartibda shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish bo'yicha roziligini qaytarib olish yuzasidan avtomaktab moderatoriga murojaat qilishi mumkin.

21.6. Bunday rozilik qaytarib olinganidan keyin Platformaga kirish to'liq cheklanishi mumkin.

21.7. Rozilikni qaytarib olish Operatorning qonunchilik yoki boshqa mustaqil qonuniy asosga ko'ra ayrim ma'lumotlarni saqlash majburiyatini avtomatik bekor qilmaydi.

22. BIOMETRIK MA'LUMOTLAR

22.1. e-test.uz orqali ichki imtihon topshirishda Foydalanuvchining shaxsini aniqlash va imtihonning aynan shu Foydalanuvchi tomonidan bajarilishini tekshirish maqsadida yuz tasviri bilan bog'liq biometrik ishlov qo'llanilishi mumkin.

22.2. Biometrik ma'lumotlarga ishlov berish faqat tegishli qonuniy asos va Foydalanuvchining zarur roziligi mavjud bo'lgan hollarda amalga oshiriladi.

22.3. Biometrik ma'lumotlarga ishlov berishning to'liq tartibi Maxfiylik siyosatining alohida bo'limida belgilanadi.

22.4. Ichki imtihon davomida saqlangan nazorat fotosuratlari imtihonning haqiqiyligini tasdiqlash, e'tiroz va tekshiruvlarni ko'rib chiqish maqsadida saqlanishi mumkin.

23. COOKIE VA ANALITIK XIZMATLAR

23.1. e-avtomaktab.uz saytida texnik zarur cookie fayllari hamda Foydalanuvchining roziligi asosida analitik texnologiyalar qo'llanilishi mumkin.

23.2. Google Analytics va Yandex Metrica kabi analitik vositalar Foydalanuvchining tegishli roziligidan keyin ishga tushirilishi mumkin.

23.3. Foydalanuvchiga cookie-banner orqali:

- "Qabul qilaman";
- "Rad etaman"

variantlari taqdim etiladi.

23.4. Foydalanuvchi keyinchalik **"Cookie sozlamalari"** orqali o'z tanlovini o'zgartirishi mumkin.

23.5. Google reCAPTCHA Platformani avtomatlashtirilgan zararli so'rovlardan himoya qilish maqsadida qo'llanilishi mumkin.

24. INTELLEKTUAL MULK

24.1. e-avtomaktab.uz, e-test.uz va Operator tomonidan yaratilgan tegishli tizimlarning:

- dasturiy ta'minoti;
- dizayni;
- interfeysi;
- test savollari;
- o'quv materiallari;
- ma'lumotlar bazasi elementlari;
- grafik materiallari;
- boshqa mualliflik huquqi obyektlari

Operatorga yoki qonuniy huquq egasiga tegishlidir.

24.2. Foydalanuvchiga mazkur obyektlardan faqat Platformaning maqsadiga muvofiq shaxsiy foydalanish uchun cheklangan foydalanish huquqi beriladi.

24.3. Operatorning yozma rozilgisiz:

- ko'chirish;
- ommaviy tarqatish;
- sotish;
- tijorat maqsadida foydalanish;

- boshqa platformaga joylashtirish;
- test savollarining bazasini shakllantirish;
- dasturiy kod yoki himoya mexanizmlarini tahlil qilib chetlab o'tish

taqiqlanadi, qonunchilikda bevosita ruxsat etilgan holatlar bundan mustasno.

25. OPERATORNING HUQUQLARI

Operator:

- 25.1. Platformani rivojlantirish va funksiyalarini yangilash;
- 25.2. texnik xavfsizlik maqsadida zarur cheklovlarni joriy qilish;
- 25.3. qoidabuzarlik aniqlanganda akkauntni cheklash yoki bloklash;
- 25.4. Platformada texnik xizmatlar o'tkazish;
- 25.5. qonuniy asos mavjud bo'lganda tegishli davlat organlari va tashqi tizimlar bilan axborot almashish;
- 25.6. Platformaning intellektual mulk obyektlarini himoya qilish;
- 25.7. Oferta va boshqa hujjatlarni mazkur Ofertada belgilangan tartibda yangilash huquqiga ega.

26. OPERATORNING MAJBURIYATLARI

Operator:

- 26.1. Platformani uning funksional maqsadiga muvofiq ishlatishga harakat qilishi;
 - 26.2. aniqlangan texnik nosozliklarni imkon qadar tez bartaraf etish choralari ko'rishi;
 - 26.3. Foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlari bilan qonunchilik va Maxfiylik siyosatiga muvofiq ishlashi;
 - 26.4. vakolatli xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarga kirishini ularning xizmat vazifalari doirasida cheklashi;
 - 26.5. Platforma xavfsizligini ta'minlash uchun oqilona tashkiliy va texnik choralarni ko'rishi;
 - 26.6. Foydalanuvchi murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqishi
- shart.
-

27. TEXNIK ISHLAR VA PLATFORMANING MAVJUDLIGI

27.1. Operator Platformaning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi, biroq aniq foizli uptime yoki SLA kafolatini bermaydi.

27.2. Rejali texnik ishlar odatda foydalanishga kamroq ta'sir qiladigan vaqtda, jumladan kechasi yoki dam olish kunlari amalga oshirilishi mumkin.

27.3. Rejali texnik ishlar haqida Foydalanuvchilar imkon qadar oldindan:

- Platformadagi bildirishnoma;
- Telegram;
- boshqa mavjud kanal

orqali xabardor qilinadi.

27.4. Favqulodda texnik ishlar oldindan ogohlantirmasdan amalga oshirilishi mumkin.

28. JAVOBGARLIK

28.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

28.2. Operator Foydalanuvchining:

- login/parolini uchinchi shaxsga bergani;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilmagani;
- o'z qurilmasidagi nosozlik;
- o'z internet aloqasidagi uzilish;
- zararli dastur yoki uchinchi shaxs harakati

oqibatida yuzaga kelgan holatlar uchun, qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.

28.3. Operator nazoratidan tashqaridagi to'lov tizimlari, davlat tizimlari, aloqa operatorlari yoki boshqa uchinchi tomon servislarning ishlamasligi natijasida yuzaga kelgan uzilishlar uchun Operator faqat o'z aybi va qonunda nazarda tutilgan javobgarlik doirasida javob beradi.

28.4. Mazkur Oferta Operatorni o'z aybi bilan yetkazilgan zarar, shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof qayta ishlash yoki qonunchilikda bekor qilib bo'lmaydigan boshqa javobgarlikdan ozod qilmaydi.

29. FORS-MAJOR

29.1. Tomonlar o'z nazoratidan tashqaridagi, oldindan oqilona tarzda oldini olish yoki bartaraf etish imkoni bo'lmagan yengib bo'lmaydigan holatlar sabab majburiyatlarning

bajarilmaganligi uchun qonunchilikda belgilangan doirada javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

29.2. Bunday holatlarga, jumladan:

- elektr yoki aloqa uzilishi;
- internet magistralidagi yirik nosozlik;
- davlat axborot tizimlarining ishlamasligi;
- to'lov tizimlarining ishlamasligi;
- tabiiy ofat;
- favqulodda holat;
- urush yoki ommaviy tartibsizliklar;
- kiberhujum;
- vakolatli organlarning majburiy qarorlari;
- Operator nazoratidan tashqaridagi boshqa yengib bo'lmaydigan holatlar

kirishi mumkin.

29.3. Fors-major holati mavjudligi Operatorning axborot xavfsizligi va zarar oqibatlarini kamaytirish uchun oqilona choralar ko'rish majburiyatini bekor qilmaydi.

30. MUROJAATLAR VA SHIKOYATLAR

30.1. Murojaat masalaning turiga qarab:

- ta'lim, o'qituvchi, instruktor, darslar, ta'lim narxi va avtomaktab faoliyati bo'yicha — tegishli avtomaktabga;
- e-avtomaktab, e-test, akkaunt, texnik nosozlik, shaxsiy ma'lumotlar va Operator funksiyalari bo'yicha — Operatorga

yuboriladi.

30.2. Operatorga yuborilgan oddiy rasmiy murojaatlar, agar qonunchilikda boshqa muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, imkon qadar **15 ish kuni ichida** ko'rib chiqiladi.

30.3. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotini tuzatish bo'yicha murojaati ichki tartibda **10 ish kuni ichida** ko'rib chiqilishi mumkin.

30.4. Shaxsiy ma'lumotni o'chirish bo'yicha murojaat ichki tartibda **15 ish kuni ichida** ko'rib chiqilishi mumkin, qonunchilikda boshqa muddat yoki majburiyat nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

30.5. Shaxsiy ma'lumotlarga oid murojaatda Operator Foydalanuvchining shaxsini:

- SMS-kod;
- PINFL/pasport tekshiruvi;
- avtomaktab moderatorining tasdig'i;
- Telegram akkauntiga bog'langan telefon;

- boshqa ishonchli usul

orqali tasdiqlashni talab qilishi mumkin.

30.6. Tuzatish talabi rad etilsa, rad etish sababi mavjud aloqa kanali orqali Foydalanuvchiga tushuntiriladi.

31. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

31.1. Tomonlar mazkur Oferta yuzasidan kelib chiqadigan nizolarni birinchi navbatda muzokara va murojaat/pretenziya yo'li bilan hal qilishga harakat qiladi.

31.2. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo **O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq** hal qilinadi.

31.3. Mazkur Oferta Foydalanuvchining qonunchilikda belgilangan sudga, vakolatli davlat organiga yoki boshqa himoya vositalariga murojaat qilish huquqini cheklamaydi.

32. OFERTANI O'ZGARTIRISH

32.1. Operator mazkur Ofertaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.

32.2. Oferta versiyalari:

- v1.0;
- v1.1;
- v2.0

kabi versiyalash tizimi asosida yuritiladi.

32.3. Huquqiy mazmunni o'zgartirmaydigan:

- imlo tuzatishlari;
- kontakt ma'lumotlarini yangilash;
- band raqamlarini o'zgartirish;
- texnik aniqlashtirishlar

uchun Foydalanuvchidan qayta aksept talab qilinmasligi mumkin.

32.4. Quyidagi muhim o'zgarishlarda Foydalanuvchidan qayta tasdiqlash talab qilinadi:

- yangi turdagi shaxsga doir ma'lumot yig'ilishi;
- yangi tashqi integratsiya joriy etilishi;
- biometrik ishlov tartibining sezilarli o'zgarishi;
- ma'lumotlarni saqlash muddatining uzaytirilishi;
- Foydalanuvchining huquq yoki majburiyatlariga sezilarli ta'sir qiluvchi o'zgarish;
- akkauntni bloklash asoslarining jiddiy o'zgarishi;
- Operator yoki Foydalanuvchining javobgarligiga oid muhim o'zgarish.

32.5. Qayta aksept talab qilinadigan yangi versiya tasdiqlanmaguncha Platformaga kirish cheklanishi mumkin.

33. OFERTANING AMAL QILISHI VA TUGASHI

33.1. Mazkur Oferta Operator tomonidan bekor qilinmaguncha yoki yangi tahrir bilan almashtirilmaguncha amal qiladi.

33.2. Foydalanuvchining akkaunti yopilishi yoki Platformaga kirishining tugashi Oferta bo'yicha barcha huquq va majburiyatlarni avtomatik tugatmaydi.

33.3. Quyidagi qoidalar o'z mohiyatiga ko'ra akkaunt yopilgandan keyin ham amal qilishi mumkin:

- intellektual mulk;
 - shaxsga doir ma'lumotlarni qonuniy saqlash;
 - aksept va audit yozuvlari;
 - nizolarni hal qilish;
 - javobgarlik;
 - vakolatli davlat organlarining qonuniy so'rovlarini bajarish.
-

34. FOYDALANUVCHI VAFOT ETGAN YOKI HUQUQIY HOLATI O'ZGARGAN TAQDIRDA

34.1. Foydalanuvchining vafoti yoki Platformadan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi boshqa qonuniy holat tasdiqlansa, uning akkaunti bloklanishi mumkin.

34.2. Tegishli ma'lumotlar Maxfiylik siyosati va qonunchilikda nazarda tutilgan muddatlarda saqlanadi.

34.3. Bloklangan akkaunddagi ma'lumotlardan odatiy foydalanish to'xtatiladi.

34.4. Nizo, tekshiruv, hisobot yoki qonuniy so'rov mavjud bo'lsa, vakolatli xodimlar zarur ma'lumotlarga xizmat vazifasi doirasida kirishi mumkin.

35. HUJJAT TILLARI

35.1. Oferta:

- o'zbek tilida lotin yozuvida;
- o'zbek tilida kirill yozuvida;
- rus tilida

e'lon qilinishi mumkin.

35.2. Tahrirlar o'rtasida tafovut yoki turlicha talqin yuzaga kelgan taqdirda **o'zbek tilidagi lotin yozuvida tayyorlangan matn ustuvor hisoblanadi.**

36. YAKUNIY QOIDALAR

36.1. Mazkur Ofertada nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

36.2. Ofertaning biror qoidasi haqiqiy emas deb topilishi qolgan qoidalarining haqiqiyligiga avtomatik ta'sir qilmaydi.

36.3. Operator Foydalanuvchilarning qonunchilikda belgilangan huquqlarini mazkur Oferta bilan bekor qilish yoki cheklashni maqsad qilmaydi.

36.4. Oferta bilan Maxfiylik siyosati o'rtasida shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash masalasida tafovut mavjud bo'lsa, qonunchilikka zid bo'lmagan doirada ushbu masalani batafsil tartibga soluvchi Maxfiylik siyosati qo'llaniladi.

37. OPERATOR REKVIZITLARI

To'liq yuridik nomi:

“VATANPARVAR TASHKILOTI MARKAZIY KENGASHI TASARRUFIDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MARKAZI” unitar korxonasi

Qisqa nomi:

“Vatanparvar” axborot texnologiyalar markazi

STIR:

307176844

Yuridik manzil:

Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Osiyo ko'chasi, 86A

Telefon:

+998 71 207 92 93

Elektron pochta:

info@vitc.uz

Telegram:

@eavtomaktab_admin

Asosiy platforma:

e-avtomaktab.uz

Oferta versiyasi: v1.0

Kuchga kirish sanasi: 2026-yil 20-avgust